

**PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TA'LIM
SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI**

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1- guruh talabasi

Anvarova Mushtariy Abbosbek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda psixologik-pedagogik yondashuvlarning roli chuqur tahlil qilingan. Unda o'quvchi shaxsini rivojlantirish, individual yondashuvlar, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining psixologik asoslari, raqamli vositalar, differensial va inklyuziv ta'lim usullarining samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, o'qituvchi, ota-ona va psixologlar o'rtasidagi hamkorlik orqali ta'lim jarayonining yaxlit va samarali tashkil etilishi asoslab berilgan.

Аннотация: В данной статье всесторонне рассмотрена роль психолого-педагогических подходов в повышении качества образования. Освещены вопросы развития личности ученика, индивидуального подхода, психологических основ современных образовательных технологий, использования цифровых средств, дифференцированного и инклюзивного обучения. Также обоснована эффективность взаимодействия между учителем, родителями и психологом.

Annotation: This article explores the role of psychological and pedagogical approaches in improving the quality of education. It highlights the importance of individual student development, psychological foundations of modern teaching technologies, digital tools, and the effectiveness of differentiated and inclusive learning strategies. The article also emphasizes the need for cooperation between teachers, parents, and psychologists in creating a holistic educational process.

Kalit so'zlar: Ta'lim sifati, psixologik yondashuv, pedagogik texnologiya, individual rivojlanish, differensial ta'lim, inklyuziv ta'lim, raqamli ta'lim, o'qituvchi, o'quvchi, psixologik-pedagogik hamkorlik.

Ключевые слова: Качество образования, психологический подход, педагогическая технология, индивидуальное развитие, дифференцированное обучение, инклюзивное обучение, цифровое обучение, учитель, ученик, психолого-педагогическое взаимодействие.

Keywords: Quality of education, psychological approach, pedagogical technology, individual development, differentiated education, inclusive education, digital learning, teacher, student, psycho-pedagogical cooperation.

Bugungi globallashuv davrida har bir davlat o'z taraqqiyotini ta'lim sifati bilan bog'lamoqda. Sifatli ta'lim esa, avvalo, o'quvchilarning individual imkoniyatlari,

qobiliyatlari, ruhiy holati va ehtiyojlarini inobatga olgan holda olib borilgan o'quv-tarbiyaviy faoliyat bilan ta'minlanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ta'lim jarayonida psixologik va pedagogik yondashuvlarning uyg'unligi muhim o'rin tutadi. Zero, har bir o'quvchi shaxs sifatida yondashuvni, qiziqish va ehtiyojlariga asoslangan o'qitish uslubini talab etadi. Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda psixologik va pedagogik yondashuvlarning asosiy jihatlari, ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llari tahlil qilinadi.

Ta'lim sifatini oshirish uchun zamonaviy pedagogik jarayon psixologik qonuniyatlar asosida tashkil etilishi lozim. Bu borada ilg'or psixolog va pedagog olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariyalar muhim amaliy ahamiyatga ega.

Lev Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra, o'quvchining mustaqil bajara oladigan va katta yoshli yoki tengdoshlari yordamida bajara oladigan faoliyatlari o'rtasidagi farqni inobatga olgan holda, pedagog o'z o'quvchisining individual imkoniyatlariga mos yondashishi ta'lim samaradorligini oshiradi. Bu esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasini asoslab beradi.

Jan Piaget tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv rivojlanish bosqichlari asosida esa, o'quvchilarning yoshga doir tafakkur xususiyatlari hisobga olinadi. Har bir bosqichga mos metodlar qo'llanilishi o'quv materialining chuqurroq o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Jerome Bruner konstruktivistik yondashuvi asosida o'quvchilar bilimni tayyor holatda emas, balki mustaqil fikrlash, izlanish va tajriba orqali egallaydi. Bu yondashuv o'quvchini faol subyektga aylantiradi va mustahkam bilimlar shakllanishiga yordam beradi.

Benjamin Bloom tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiya esa o'quvchilarning bilimga bo'lgan yondashuvini bosqichma-bosqich chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Dastlabki bosqichda bilim olish, keyin tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash bosqichlari orqali o'quvchi fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

John Deweyning amaliyotga asoslangan yondashuvi, ta'lim jarayonini hayot bilan bog'lash, o'quvchilarda faol ishtirok va qiziqishni uyg'otish orqali o'qish jarayonini mazmunli va samarali qiladi. Dewey fikricha, "ta'lim – bu hayotning o'zi".

Albert Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasi orqali o'rganish faqat og'zaki yoki yozma ma'lumot orqali emas, balki boshqalarning xatti-harakatini kuzatish orqali ham amalga oshirishini ko'rsatgan. Bu yondashuv ta'lim jarayonida namunali shaxslar, ijobiy rol modellari va interaktiv metodlardan foydalanish zarurligini bildiradi.

David Ausubel esa o'quv materialini mavjud bilimlar bilan bog'lab tushuntirish orqali yangi ma'lumotlarni osonroq va mazmunli o'zlashtirish mumkinligini ta'kidlaydi. Bu metod o'quvchilarda uzviylik va mantiqiy fikrlashni shakllantiradi.

Ushbu psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida quyidagi amaliy chora-tadbirlar orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin. Individual yondashuvni yo'lga qo'yish,

Vygotskiy va Piaget nazariyalaridan kelib chiqib, har bir o'quvchining rivojlanish darajasi, idrok qilish tezligi, qiziqishlari inobatga olinishi lozim. Bu uchun o'qituvchi diagnostika asosida differensial yondashuvni qo'llashi zarur. O'quvchini faol subyektga aylantirish, Bruner va Deweyning yondashuvlaridan foydalangan holda, o'quvchilarga muammo asosida fikrlash, mustaqil izlanish, tajriba asosida bilim olish imkoniyatlari yaratish kerak. Amaliy mashg'ulotlar, loyihaviy ishlar va guruhli muhokamalar samarali usullardandir. Bosqichma-bosqich fikrlashni shakllantirish, Bloom taksonomiyasidan foydalanib, darslarda savol-javoblar, tahliliy topshiriqlar, baholash faoliyatlarini yo'lga qo'yish orqali o'quvchilarning analitik va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish mumkin. Rol modellardan foydalanish, Bandura nazariyasiga asoslanib, o'quvchilarga ijobiy shaxsiy fazilatlarni namoyon etuvchi namunali shaxslarni tanishtirish, videodarslar, hikoyalar orqali ijobiy xulq-atvorlarni shakllantirish maqsadga muvofiq. Yangi bilimlarni mavjud bilimlar bilan bog'lash, Ausubel tavsiya qilganidek, har bir yangi mavzu o'quvchining ilgari olgan bilimlariga tayanib tushuntirilsa, bu o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Shuningdek, asosiy tushunchalarga tayanuvchi "konspekt xaritalar", "grafik sxemalar"dan foydalanish foydalidir. Motivatsiyani oshirish, har bir yondashuvda o'quvchining ichki motivatsiyasini oshirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun rag'batlantirish, o'z-o'zini baholash, mustaqillik va mas'uliyat hissini kuchaytiruvchi metodlar qo'llanishi lozim. Axborot texnologiyalaridan foydalanish, zamonaviy texnologiyalar psixologik-pedagogik yondashuvlarni yanada samarali qo'llash imkonini beradi. Masalan, interaktiv doskalar, onlayn dars platformalari, multimediali materiallar orqali o'quvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantirish mumkin.

Psixologik yondashuvlar, avvalo, o'quvchi shaxsining ichki dunyosi, hissiyoti, motivatsiyasi va o'qishga bo'lgan munosabatini o'rganishga qaratilgan. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga keladigan bo'lsak bu yondashuvda o'quvchining yoshi, individualligi, intellektual va emotsional salohiyati e'tiborga olinadi. O'quvchilar bir xil tezlikda o'zlashtira olmaydi, shuning uchun har biriga mos yondashuv qo'llash zarur. Bu metod shaxsiylashtirilgan ta'limni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta'limda muvaffaqiyat kaliti o'quvchining ichki motivatsiyasidir. Masalan, Maslou nazariyasiga ko'ra, o'quvchining asosiy ehtiyojlari qondirilsa, u yuqoriroq maqsadlar sari intiladi. O'qituvchi bu jarayonda rag'batlantirish, maqtov va mustaqil fikrlashga undovchi metodlardan foydalangan holda, o'quvchini ichki motivatsiya bilan ta'minlashi mumkin.

Emotsional intellekt bu shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish qobiliyatidir. Ta'lim jarayonida ijobiy muhit yaratish, o'quvchilar o'rtasida mehr-

oqibatni rivojlantirish, ijobiy kayfiyatda o'qitish natijadorlikni oshiradi. Pedagogik yondashuvlar esa o'quv jarayonining mazmuni, metodikasi va tashkil etilishi bilan bog'liqdir. Konstruktiv yondashuv bu yondashuvga ko'ra, o'quvchi bilimni tayyor holatda emas, balki o'z tajribasi orqali egallashi kerak. O'qituvchi o'quvchini yo'naltiruvchi, muammolar yechimini topishga undovchi bo'lib xizmat qiladi. Bu o'quvchini faol fikrlovchi shaxsga aylantiradi. Faol metodlar bu o'quvchilarni darsga faol jalb etuvchi uslublar bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: interaktiv darslar, jamoaviy ishlar, rolli o'yinlar, loyihalar, munozaralar. Bu usullar orqali bilim chuqurroq va mustahkam o'zlashtiriladi. Refleksiya o'quvchining o'z ta'lim jarayonini baholashi, o'rganilgan mavzuni tahlil qilishi. Bu yondashuv orqali o'quvchi mustaqil fikrlash va o'zlashtirish darajasini oshiradi.

Psixologik va pedagogik yondashuvlarni integratsiyalash. Psixologik va pedagogik yondashuvlar o'zaro uyg'unlashtirilganda ta'lim jarayonining sifati yanada ortadi. Masalan, pedagogik texnologiyalarni o'quvchi psixologiyasi bilan muvofiqlashtirish. Shaxsga yo'naltirilgan darslar orqali motivatsiyani oshirish. Emotsional intellekt va konstruktiv yondashuvni uyg'unlashtirish. Bu integratsiya asosida o'quvchi shunchaki bilim oluvchi emas, balki ongli ravishda rivojlanayotgan shaxsga aylanadi. Har bir o'quvchi shaxs bo'lib shakllanayotgan mustaqil individdir. Shuning uchun ta'lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki uning ruhiy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishini ham hisobga olish zarur. Vygotskiy ta'lim nazariyasida "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasi mavjud bo'lib, o'qituvchi o'quvchining hozirgi bilim darajasidan biroz oldinda turgan vazifalarni berishi lozim. Bu yondashuv bilan o'quvchining intellektual salohiyati samarali rivojlanadi.

Biopsixososial yondashuv bu o'quvchining biologik, psixologik va ijtimoiy jihatlarini birgalikda tahlil qilib, har tomonlama rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi ta'lim metodlarini ishlab chiqish. Masalan, diqqat yetishmovchiligi bo'lgan bolalarga differensial ta'lim metodlari, ijtimoiy fobiyasi bo'lgan bolalarga esa psixologik qo'llab-quvvatlovchi metodlar kerak bo'ladi.

Zamonaviy ta'limda psixologik-pedagogik texnologiyalarni o'rni. STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) bu fanga asoslangan o'qitish bilan birga ijodiy va emotsional ko'nikmalarni rivojlantiradi. Montessori pedagogikasi shaxsga yo'naltirilgan, o'quvchini mustaqil fikrlovchi va tanlov qiluvchi shaxs sifatida rivojlantirishga yo'naltirilgan. Reggio Emilia yondashuvi o'quvchilarni "kashfiyotchi" sifatida ko'radi, ta'limda emotsional aloqalar va ijtimoiy o'rganish muhim o'rin tutadi. Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchining psixologik salohiyati haqida fikr yuritamiz. O'qituvchining kommunikativ ko'nikmalari, stressni boshqarish, empatiya qobiliyati, konfliktlarni hal qilish madaniyati bularning barchasi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Psixologik barqaror o'qituvchi bu

o'quvchining o'rnak oladigan shaxsidir. Shu sababli, o'qituvchilarga psixologik treninglar, reflektiv amaliyotlar va emotsional salomatlik mashg'ulotlari muhim.

Differensial va inkluziv yondashuvlar. Har bir o'quvchi turli darajadagi qobiliyat va ehtiyojlarga ega. Shu sababli, differensial yondashuv orqali kuchli o'quvchilarga murakkab topshiriqlar, qiyinchilikka uchrayotganlarga oddiylashtirilgan yondashuvlar, nogironligi bo'lgan o'quvchilarga esa moslashtirilgan va inkluziv dasturlar taqdim etilishi kerak. Inkluziv ta'limda psixologik qo'llab-quvvatlash, maxsus pedagoglar, logoped va defektologlar ishtiroki zarur.

Raqamli psixologik-pedagogik texnologiyalar. Psixologik diagnostika vositalari, Onlayn testlar, kuzatuv platformalari orqali o'quvchilarning emotsional, ijtimoiy holatlari o'rganiladi. Elektron baholash tizimlari (e-assessment) O'quvchilarning bilim darajasini ob'ektiv va tez tahlil qilishga imkon beradi. Virtual laboratoriyalar va simulyatorlar: O'quvchini muhit bilan emotsional va kognitiv bog'laydi.

Ota-ona, pedagog va psixolog hamkorligi. Ota-onalarning farzandi psixologiyasi, tarbiyaviy ehtiyojlari to'g'risida ma'lumotli bo'lishi, o'qituvchi va maktab psixologi bilan muntazam muloqotda bo'lishi kerak. Psixologik-pedagogik konsiliumlar tashkil qilish orqali har bir bola ustida alohida yondashuv ishlab chiqish mumkin.

Xulosa va tavsfiyalarga o'tamiz. Ta'lim sifatini oshirish zamonaviy davrning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bu sifatga erishishda psixologik va pedagogik yondashuvlarning o'zni beqiyos. Shaxsga yo'naltirilgan, emotsional muhitga asoslangan, faol va interaktiv metodlar orqali olib borilgan darslar samaradorlikni oshiradi. O'qituvchi o'z faoliyatida zamonaviy psixologik bilimlarni, didaktik metodlarni uyg'unlashtirib, har bir o'quvchining salohiyatini ro'yobga chiqarishda asosiy yetakchiga aylanadi. Ta'limda sifat bu nafaqat bilim, balki tarbiya, ruhiy salomatlik va ijtimoiy moslashuv natijasi hamdir.

Psixologik-pedagogik yondashuvlar zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismidir. Ta'lim sifatini oshirish uchun faqatgina dars berish emas, balki o'quvchining emotsional, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarini ham hisobga olish zarur. Bu yondashuvlar orqali sog'lom, baxtli va mustaqil fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalash mumkin bo'ladi. Shu sababli, ta'limda individual yondashuvlar, integratsiyalashgan metodlar va zamonaviy psixologik-pedagogik texnologiyalarning keng qo'llanilishi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lev Semyonovich Vygotskiy. Pedagogik psixologiya. Toshkent: 2021.
2. Jan Piaget. Intelektual rivojlanish bosqichlari. Moskva: 2020.
3. Mualliflar jamoasi. O'zbek pedagogik psixologiyasi asoslari. Toshkent: 2022.
4. Mualliflar jamoasi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: STEAM yondashuvi. Toshkent: TDIU nashriyoti, 2023.

5. UNESCO. Inclusive Education Guidelines. Paris: UNESCO Publishing, 2021.
6. Ziyonet. www.ziyonet.uz – Ta’lim sohasidagi zamonaviy maqolalar va ma’lumotlar portali.

